14. Tursunnazar o'g'li, O. J., & Ilhom o'g'li, M. E. (2023, May). ODDIY FERMA STERJENLARIDA QO'ZG'ALMAS YUKLAR TA'SIRIDAN ZO'RIQISHLARNI TOPISH, ODDIY FERMA STERJENLARIDAGI ZO'RIQISHLARI UCHUN TA'SIR CHIZIQLAR QURISH VA ULARNI BERILGAN YUK BILAN YUKLASH. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 262-268).
15. Begali o'g'li, A. E., Ilhom o'g'li, M. E., & Tursunnazar o'g'li, O. J. (2023). EKSKAVATORLAR BILAN GRUNT QAZISH TEXNOLOGIYALARI. MODELS AND

METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(24), 132-140.

16. Xalilova, R. X., & Ilhom o'g'li, V. E. (2022, December). ATMOSFERANI MUHOFAZA QILISH. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 120-123).

17. Ilhom o'g'li, M. E. (2022). KO 'P PROLYOTLI SHARNERLI BALKALARNI XARAKATLANUVCHI YUK TA'SIRIGA HISOBLASH. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 250-254).

18. Shohjaxon Maxamadro'zi o'g, U., & Ilhom o'g'li, M. E. (2022). TEMIR YO 'L TRANSPORTIDA BINO VA INSHOOTLAR QURILISHI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 234-237).

19. Begali o'g'li, A. E., & Ilhom o'g'li, M. E. (2022). TEMIR YO 'LLAR QURILISHIDA BETON VA TEMIRBETON VAZIFALARI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 246-249).

20. Mamurova, F. I., & ugli Mustafayev, E. I. (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. Conferencious Online, 16-18.

## ОСОБЕННОСТИ ПРОВЕДЕНИЯ ПОВЕРКИ АНАЛИЗАТОРОВ ПАРОВ ЭТАНОЛА ВО ВЫДЫХАЕМОМ ВОЗДУХЕ

С.А.Фазилова, Д.Д.Сангилов, Г.К.Солижанов

*Узбекский Национальный Институт Метрологии Сырдарьинский филиал*

**Аннотация:** *Проведен анализ современного состояния метрологического обеспечения поверки анализаторов паров этанола, проработаны информации о нормативных документах и методиках поверки анализаторов.*

**Ключевые слова:** *алкогольное опьянение, алкотестер, безопасность дорожного движения, генератор газовых смесей, стандартные образцы водного раствора этанола.*

По информационным данным прокуратуры города Ташкента за 2023 год только на дорогах столицы республики погибли 95 человек, еще 1248 человек получили травмы, из них 10 обрели пожизненную инвалидность, и выявлены 4384 случаев езды в нетрезвом состоянии. Пьяные водители совершили 26 тяжких смертельных аварий.

С целью повышения безопасности дорожного движения, в связи дорожно-транспортные происшествия, вызванные вождением в нетрезвом состоянии водителей, составляют значительную долю от общего числа дорожно-транспортных происшествий были внесены изменения в административное и уголовное законодательство республики.

В Узбекистане утверждено **Положение о порядке определения состояния алкогольного опьянения водителей транспортных средств [1].** Постановлением **Президента Республики Узбекистан №ПП-3786** от 19.06.2018 г. был поручен разработать, утвердить и ввести упрощенный порядок определения состояния алкогольного опьянения водителей транспортных средств, в том числе при помощи переносных технических средств.

Обратимся к понятию технических средств – современных анализаторов паров этанола. Анализатор паров этанола – средство измерений, предназначенное для измерения массовой концентрации паров этанола в отобранной пробе выдыхаемого воздуха с нормированной допускаемой погрешностью и отображения результата измерения в цифровой форме на дисплее и бумажном носителе с помощью встроенного или внешнего принтера.

В сфере государственного регулирования обеспечения единства измерений, для измерения паров этанола в выдыхаемом воздухе используются алкотестеры с предельной допускаемой основной погрешностью до  $\pm 0,05$  мг/л.

Положением **о порядке определения состояния алкогольного опьянения водителей транспортных средств** определена допустимая предельная концентрация алкоголя. Раньше ее не было и формально любое содержание алкоголя в крови могло служить основанием для применения административного взыскания. Спорные ситуации по этому поводу возникали при употреблении продуктов и веществ,

содержащих алкоголь в малых количествах (квас, шоколадные конфеты, апельсины, бананы, соки, сигареты и т.д.), а также на следующие дни после употребления водителями спиртных напитков.

В случае если показатель концентрации паров этанола в выдыхаемом водителем транспортного средства в воздухе равен или превышает 0,135 миллиграмм, сотрудник ГСБДД в соответствии со статьей 131 Кодекса Республики Узбекистан об административной ответственности оформляет в отношении водителя административный протокол по факту употребления алкогольного напитка.

Теперь при использовании анализатора паров этанола во выдыхаемом воздухе состояние опьянения признают при показателе паров алкоголя во выдыхаемом воздухе в 0,135 миллиграммов и выше. А на медицинском освидетельствовании в лечебно-профилактическом учреждении – при концентрации алкоголя в крови в 0,3 промилле и выше.

**Миллиграммы** – количество алкоголя в 1 литре выдыхаемого воздуха. Измеряется уровень алкотестерами, а **промилле** – это содержание алкоголя в крови. Определяется уровень только лабораторным анализом крови.

Как уже отмечено, что анализаторы паров этанола во выдыхаемом воздухе используются в сфере государственного регулирования обеспечения единства измерений в области здравоохранения и выполнении работ по обеспечению безопасности дорожного движения, условий и охраны труда. Поэтому перед проведением теста водитель вправе ознакомиться с документацией на прибор. Повышенные показатели прибора не всегда говорят об опьянении.

Во-первых, этиловый спирт есть в организме всегда. Его называют эндогенным, и в крови взрослого человека можно найти до 0,08 промилле «природного» этанола. При этом повышенное содержание этанола может вызвать прием некоторых лекарств, как банальных спиртовых настоек, так и инсулина, адреналина и аскорбиновой кислоты.

Во-вторых, алкотестер имеет погрешность в 0,02—0,05 мг/л в зависимости от модели.

Он должен быть в установленном порядке проверен Министерством здравоохранения и иметь сертификат, выданный Узбекским Национальным институтом метрологии Агентства технического регулирования. Кроме того, работник государственной службы безопасности дорожного движения обязан строго следовать санитарно-гигиеническим правилам. Однако использование одноразовых мундштуков в документе прямо не прописано.

Здесь необходимо учитывать, что принятые в Узбекистане пороговые показатели алкотестера (мг/л) и его содержания в крови (промилле) строго соответствуют научно доказанному соотношению, где 1мг/л равен 0,45 промилле (1:0,45). Т.е. 0,135 мг/л – это 0,3 промилле. Однако алкотестер имеет погрешность в зависимости от модели 0,02 – 0,05 мг/л. Определение точной концентрации этанола в воздухе является актуальной проблемой, решение которой способствует обеспечению безопасности дорожного движения и сохранению жизни человека. Точность анализа зависит не


только от биологических особенностей человека, но и от типа используемого прибора и его калибровки. В работе [2] систематизированы результаты поверки около 3800 анализаторов паров этанола утвержденного типа. Погрешность анализаторов преимущественно связаны с конструктивными особенностями приборов, которые определяются применяемым чувствительным элементом – первичным измерительным преобразователем, на который непосредственно воздействует измеряемая физическая величина. В зависимости от используемых физико-химических принципов измерений первичные преобразователи анализаторов паров этанола классифицируются на следующие виды: термохимические; электрохимические; полупроводниковые; оптические сенсоры паров этанола.

• Сравнительные анализы [2], проведенные алкотестерами разной конструкции показали, что существенно лучшие показатели оказались у приборов с электрохимическим датчиком. Электрохимические датчики – отличаются повышенной надежностью и износостойкостью, применяются в профессиональных моделях алкотестеров.

Когда пользователь выдыхает в алкотестер, любой этанол, присутствующий в его дыхании, окисляется на аноде до уксусной кислоты:



на катоде кислород воздуха восстанавливается:



Общая реакция представляет собой окисление этанола до уксусной кислоты и воды.



Электрический ток, возникающий в результате этой реакции, измеряется микроконтроллером и отображается как приблизительное общее содержание алкоголя в выдыхаемом воздухе с помощью анализатора.

Основными показателями для любого типа анализаторов является погрешность измерений, точность измерений и диапазон измеряемых концентраций, а на результат измерений влияют три основные факторы [3].

Субъекты измерений. Результаты наблюдений, определяемых с помощью средств измерений, во многом зависят от профессиональной подготовки лиц, осуществляющих измерительную процедуру.

Средства измерений. Средства измерений оказывают большое влияние на результат измерений. Их выбор определяется требуемой точностью измерений.

Методы измерений. Разные методы отличаются различной точностью, поэтому также влияют на результаты измерения. Выбор их определяются требуемой точностью измерений. Любое отклонение от методики поверки приводит к нарушению результатов поверки [4]. В ходе поверки несоблюдение температурного режима или использования некачественного стандартного образца газовой смеси приводит к таким отклонениям.

При проведении измерений с помощью генератора газовых смесей необходимо собрать газовую систему согласно методике. Подготовить генератор газовых смесей к



работе согласно Руководству по эксплуатации, с использованием стандартных водных растворов этанола. Генератор газовых смесей водных растворов этанола имитирует выдыхаемый человеком воздух. По методике поверки корректировка показаний алкотестера проводят при помощи подачи газовой смеси от средства поверки – генератора на анализаторы.

Действительное значение массовой концентрации на выходе генератора газовых смесей рассчитываются по формуле:

$$C_1^Д=0,38866 \times C_p^Д,$$

где  $C_p^Д$ -аттестованное значение массовой концентрации этанола в используемом стандартном образце, указанное в паспорте, мг/см<sup>3</sup>.

Выполняют корректировку показаний анализатора, согласно эксплуатационным документам используемого конкретного анализатора.

Концентрация алкоголя в организме человека может быть измерено несколькими единицами:

1. Мг/л –миллиграмм этанола в литре выдыхаемого воздуха – используются в профессиональных приборах.

2. Промилле (‰) –грамм этанола в литре крови (г/л) – используются в большинстве персональных алкотестерах.

Концентрация в выдохе (воздушной среде) измеряют также в единицах мкг/л, или мг/м<sup>3</sup>. Перевод одной единицы в другую осуществляют из соотношения: 1,0 промилле=450 мкг/л=0,450 мг/л.

Если 1 промилле в крови соответствует примерно 0,45 мг/л в выдыхаемом воздухе, то 0,1 промилле=0,045мг, соответственно 0,3промилле=0,135мг/л

### ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проанализированы литературные данные и различные методики поверки анализаторов паров этанола, собраны сведения об анализаторах различной конструкции, о принципах их работы и стандартных образцов растворов этанола и эталонов их газовых смесей. Изучена поверочная схема анализаторов паров этанола, определены основные факторы влияющие на метрологические характеристики прибора.

### ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

[1] Положение о порядке определения состояния алкогольного опьянения водителей транспортных средств, зарегистрированное за № 3099 от 14.12.2018 г. Министерством юстиции Республики Узбекистан.

[2] М.А.Лядов, Р.Г.Романова. Технические и эксплуатационные характеристики современных анализаторов паров этанола в выдыхаемом воздухе

[3] Ю.Е.Купреева. Оценка факторов, влияющих на измерения при проведении поверки алкотестера

[4] Анализаторы паров этанола во выдыхаемом воздухе всех типов. Методика поверки QU 09-325:2016.

[5] Анализаторы паров этанола утвержденного типа.  
<http://alcotester.ru/cntnt/catalog/alcoprofessional.html>

## BUGUNGI KUNDA ZAMONAVIY KASB TANLASHNING O'ZIGA XOS JIXATLARI

**Yusupov I**

*Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tuman 1-son kasb-hunar maktabi maxsus fan  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada shaxsiy hayotdagi yutuqlar zamonaviy jamiyatda asosan uning kasbiy tanlovi bilan bog'liqligi muhokama qilinadi. Kasb tanlash - bu og'ir sharoitda omon qolish uchun, u allaqachon poydevor qo'ygan jixatdir. Tasavvur qiling, siz xozir yoshsiz, o'zingiz uchun kasb tanlash va zavq bilan ishlash juda qiyin, Shu bois sizga nima kerakligini tasvirlamoqchiman.*

**Kalit so'zlar:** *kasb, yosh avlod, mutaxassislik, ish, yo'nalish, tanlash, hunar, mehnat.*

Bugungi jamiyatda shaxsning xayotdagi yutuqlari asosan uning kasbiy tanlovi bilan belgilanadi. Ba'zi manbalarda "kasb" so'zining ma'nosi, ta'rifi yo'q bo'lib, uning mazmuni "ish" tushunchasi bilan aks etgan, ishlash, qilish, qo'l bilan, tana kuchi bilan yoki aqliy jixatdan biror narsa qilish. Zamonaviy ma'lumotnomalarga ko'ra, "kasb"- bu inson mehnat faoliyatining shakllantiruvchi omilidir. Inson taraqqiyoti davomida aynan uning mehnat faoliyati hal qiluvchi ro'l o'ynagan. Ishlab chiqarish usuli va mehnat tabiati bo'yicha insoniyat shartli ravishda agrar, sanoat va postindustrial rivojlanish bosqichlaridan o'tdi. Tadqiqotchilar postindustrial jamiyatni bilimga asoslangan axborot jamiyati deb ham atashadi. Inson faoliyati tobora ko'proq moddiy ishlab chiqarish bilan emas, balki moddiy bo'lmagan mahsulot bilan texnologiyalar va kompyuter dasturlari yordamida kodlangan ma'lumotlar, bilimlar bilan bog'liq. Jamiyat hayotining "intellektualizatsiyalashuvi" paydo bo'lgan. Xalqaro tashkilotlar sezilarli darajada o'sishi va murakkablashgan axborot tizimlari maxsus axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida uzatiladi. Zamonaviy jamiyat hayoti, uning taraqqiyoti sharoitida insoniyatning omon qolishi ko'p jihatdan yaratilgan texnologiyalarga bog'liq. Axborot davri zamonaviy shaxsning o'zini rivojlantirishga, ijodkorlikning o'ziga intilishini keltirib chiqaradi, axborot mahsulotlarini tobora ko'payib va kengayib borishiga yo'naltiradi va shu bilan birga axborot resursidan foydalanish qobiliyatini shaxsning ijtimoiy maqomida hal qiluvchi omil deb hisoblash mumkin. Ta'lim darajasi, ma'lumotni bilimga aylantirish qobiliyati, ijodiy faoliyat, axborot muhitida mustaqil va samarali harakat qilish qobiliyati zamonaviy insonning ijtimoiy mavqeining yangi tarkibiy qismidir.

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yoshlarni o'ziga bo'lgan ishonchi, kuch-g'ayrati, keng dunyoqarashi bilan ajratib ham ko'rsatish zarur. Ushbu dunyoqarash va zakovatlar esa ularni atrof-muhitga, tabiatdagi va jamiyatdagi hodisalarga qiziqishlaridan kelib chiqadi albatta. Bu esa o'z navbatida kasb tanlovchining olayotgan bilimlaridan, ko'nikmalaridan, malakalaridan, psixofiziologik imkoniyatlaridan, individual psixologik jixatlaridan fazilatlaridan va boshqa shaxsiy qirralaridan kelib chiqadi. Bugungi kunda o'z imkoniyatini to'g'ri baholay olgan insongina to'g'ri yo'lni tanlay oladi. Bu yoshlardagi tirishqoqlik,

ilmga chanqoqlik, kuzatuvchanlik, o'zini sinab ko'rishga intilishi kabi jixatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yoshlarda o'ziga xos ravishda ayrim kasblarga qiziqishlar shu kasb bilan bog'liq ayrim psixologik xususiyatlarda ko'rinadi. Misol tariqasida shuni aytish mumkinki, hozirda qaysi boladan so'rasangiz ko'proq men tadbirkor bo'laman, o'zimni ishimni yo'lga qo'yaman deb javob beradi. Tadbirkor va tadbirkorlik bu savdo sotiq, ishni tashkil etish, o'zini mehnati bilan kapital ishlash hisoblanadi. Lekin shunday ko'ringani bilan bolalarda ko'proq mashinaga ega bo'lish, puldor bo'lish, hamma narsani bemalol, xoxlagan vaqt sotib olish kabi tomonlar ko'zga tashlanadi. Buning ko'zga tashlanmas qiyinchiliklarini ular ko'ra olmaydilar va xayoliga xam keltirmaydilar. Shunday o'ziga xos bo'lgan tomonlar esa ularni qiziqtirib boradi. Yoshlarni shunday tomonlarga qiziqib borishi ular orasida tadbirkor bo'lishga havas uyg'otadi. Xuddi shuningdek, dasturchi kasbi yoki xisobchi bo'lish kabi tomonlar ham yoshlarni qiziqishlaridan kelib chiqadi. Har bir kasbni o'ziga xos bo'lgan psixologik tomonlari borki, bu yoshlarni doim o'ziga tortib turadi. Qiziqishini angelay olgan bolagina o'zi uchun kasbni to'g'ri tanlay oladi.

Yoshlardagi havas, qiziqish ularni shu kasbni egallashga intiltirib turadi. Zukko yoshlar shu kasbga tegishli bo'lgan bilimlarni eng avvalo kuzatishlar, so'rab bilishlar, kitoblardan o'qish orqali, hozirgi kunda esa internet orqali bilishga harakat qiladilar. O'zlari qiziqqan kasblari haqida ko'plab ma'lumotlar to'playdilar. Yoshlarni biror bir narsani yaratuvchanlik qiziqishi injenerlik yoki uni biror bir boshqa yo'nalishga yetaklaydi. Hozirda dunyoda ko'plab yangiliklar yaratilmoqdaki yoshlar va ularning diqqatlari doimo qiziqishlaridan kelib chiqqan holda shu obyektlarga qaratilmoqda. Har bir sohaning o'ziga xos bo'lgan qiziqarli tomonlari mavjuddir.

Pedagog ham bolalarga yetkazib berishi kerak bo'lgan bilimlarni sifatli, qiziqarli, yetib boradigan qilib darslarni o'tkazishga va o'sib kelayotgan yoshlar o'rtasidan yaxshi kadrlar yaratishni orzu qiladi. Pedagog tarbiyalagan bolalar o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda jamiyatga ko'plab yangiliklar kiritishi mumkin bo'ladi. Pedagog esa shunday kadr yaratib bera olganidan faxrlanadi albatta. Demak, ko'rinib turibdiki, yoshlarni kasbga yetaklovchi ehtiyojlaridan biri uning qiziqishlari hisoblanar ekan. Bu esa insonni biror bir narsaga yetilib kelgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bolalar o'sib borgan sari ma'lum bir taraqqiyot yo'lini bosib o'tadilar. Pedagogik sotsiologiyada aytilganidek bola tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazayotgan omillar uni o'ylashga, o'z manfaatlari yo'lida mehnat qilishga majburlaydi. Yetilib kelayotgan yoshlardagi o'zgarish ularni ijtimoiy jarayonlarga va bu jarayonlardagi o'z o'rnini bilishga chorlaydi. Katta bo'layotgan, aql - farosatga ega farzand kelajagi haqida bosh qotiradi, hayol suradi, kelajagini rejalashtiradi. Bular esa unda ko'plab ehtiyojlarni paydo qiladi. Bolalik davridan o'smirlilik va o'spirinlik davrlariga o'tib borayotgan farzandda psixologik va eng asosiysi anatomik-fiziologik o'zgarishlar yuz bera boshlaydi. Endi yoshlar asta-sekin o'zidagi tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy ehtiyojlar tizimini seza borishadi. Bu qator ehtiyojlardan yoshlarni kasb orqali o'zini ta'minlash ehtiyoji hisoblanadi. Bu ehtiyoj yoshlarni kasb tanlashga, o'z hayotini go'zal qilib yashashga majburlaydi. Aks holda ularni jamiyatga zid bo'lgan jarayonlar paydo bo'ladi.

Yoshlarni kasb egallashi nafaqat ulaming ehtiyoji balki jamiyatning ham ehtiyoji hisoblanadi. Shuning uchun jamiyat o'z ishlab chiqaruvchilarini yaratishi zarur jarayonga aylanadi. Jamiyat ishlab chiqarish orqali yashaydi va hayot kechiradi. Jamiyat ehtiyojlari har doim o'zgargan xolda o'sib boradi. Uni qondirishning yagona yo'li kasb egalarini tarbiyalash, ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda yangidan-yangi kasblarni yaratish va takomillashtirish hisoblanadi. Shuning uchun ham boshqa rivojlangan davlatlarda ko'plab yangi kasblar paydo bo'ladi va jamiyat ehtiyojlarini to'laroq qondirishga intiladi.

Jamiyatdagi ko'plab ehtiyojlar shu kasbga kerak bo'lgan kadrlarni yaratishni talab qiladi. Bu esa yoshlarda, ularning qiziqishlarida va maqsadlarida o'z aksini topadi. Jamiyatda yaratuvchanlikka, ijodkorlikka xos bo'lgan mehnat qadrlanadi. Jamiyat uchun yaratilayotgan mahsulotlar va ulami ishlab chiqarish ko'plab kasblarni paydo qiladi. Demak, ko'rinib turibdiki, inson va jamiyat ehtiyojlari uzviy ravishda bog'liq jarayonlar bo'lib xisoblanadi.

Haqiqatdan, shaxsdan kasb talab qiladigan psixologik xususiyatlar mavjudki, insonda bu xususiyatlar bo'lmasa u bu kasbda o'z yutug'iga ega bo'la olmaydi. Tadqiqotchilar bu xususiyatlarni aniqlash uchun maxsus testlar o'tkazib insonni shu kasbga layoqatini tahlil qiladilar. Kasblar o'zidagi faoliyatlarni bajarish uchun insondan ma'lum bir psixologik xususiyatlarni egasi bo'lishlarini talab qiladilar. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki xotirani yaxshi bo'lishini, diqqatni yaxshi bo'lishini, hayol jarayonlardagi qonunlarni o'zlashtirgan bo'lishini, sezgirlikni yaxshi rivojlanganligi, ayrim faoliyatlarda sabr-toqat, tartiblilik, intizom, ijodiy yondosha olish, har xil holatlardan chiqib keta olish, halollik, mehnatsevarlik, boshqalarni hurmat qilish va ulami haq-huquqlarini yaxshi bilish, bilimlilik darajasini yuksakligi, rahbarlik qilish uchun kerak bo'lgan xususiyatlarni bilish, tijorat uchun kerak bo'lgan psixologik xususiyatlarga ega bo'lish kabi ko'plab tomonlar bu jarayonlar uchun kerak bo'ladi.

Jamiyatda insonni qiziqtirgan ko'plab kasblar borki ular bir-biridan juda farqlanib turadi va insondan kasbga loyiq bo'lgan psixologik xususiyatlarni talab qiladi. Deylik pedagog uchun didaktik usul juda mos tushsa, aktiyor uchun xotiraning, hayolning va boshqa psixik jarayonlarning o'rni boshqacha hisoblanadi. Sanoatda ishlayotgan ishchi, injener, dizayner uchun o'ziga xos psixologik xususiyatlar kerak bo'ladi. Ya'ni dizayner uchun estetik did, hayol, tafakkurni egiluvchanligi, diqqat va juda nozik holdagi ranglarni ajrata olish kabi ko'plab xususiyatlar zarur bo'ladi. Xam og'ir, xam yengil sanoat uchun ko'plab xilma-xil kasb egalari kerak bo'ladi. Bular uchun ham kasb psixologiyasi o'ziga xos bo'lgan inson psixikasini qirralarini shu kasbga xos tomonlarini va shaxsda ularni rivojlantirish masalalarini ham o'rganib boradi.

Yoshlarning qiziqishi, maqsad va manfaatlari o'z dunyoqarashlariga kerak bo'lgan va mos tushadigan kasbni tanlashga, bu kasbga xos bo'lgan psixologik tomonlarni bilishga intilirib turadi.

Inson uchun eng zarur narsa — uning imidjiga, “o'ziga” ega bo'lish, uning barcha mumkin bo'lgan jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarining zo'riqishi sharoitida sodir bo'ladi. Biz ta'lim olgandan so'ng, hayot uchun zarur bo'lgan hamma narsani deyarlik bilamiz.

Biroq, ko‘pincha odam o‘zi haqida, o‘zining ijodiy imkoniyatlari haqida kam ma’lumotga ega, sog‘lig‘ini qanday saqlashni bilmaydi, kayfiyatni, ruhiy holatni boshqarmaydi, hayot yo‘nalishini, qiymat ko‘rsatmalarini tanlashda ba’zan xato qiladi.

Ko‘rinib turibdiki, inson doimiy evolyutsiya, takomillashtirish uchun dasturlashtirilgan va agar uning biosotsial dasturi amalga oshirilmasa, muvaffaqiyatsizliklar yuzaga keladi: kasalliklar, stresslar, depressiv holatlar. Ta’lim olishda kasb va yo‘nalishni tanlash kelajak uchun ish bo‘lib, inson, jamiyat, sivilizatsiyaning ijodiy salohiyatini oldindan belgilab beradi, dunyoqarash, xulq-atvor, iqtisodiy va axloqiy ustuvorliklarni yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 2019 yil
2. Kasb psixologiyasi F.R. Abduraxmonov, Z.E. Abduraxmonova. “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018.
3. Баева, Л. В. (2008) Информационная эпоха: метаморфозы классических ценностей. Астрахань.
4. Грязнова, Ю. Б. (2010) «Портфель карьер» —технология самоопределения и самоорганизации в обществе знаний» // Вестник Российского философского общества. №1. С. 61–67.
5. Даль, В. (1991) Толковый словарь живого великорусского языка : в 4 т. М., 1989–1991. Т. 4.
6. Лапатухин, М. С., и др. (1981) Школьный толковый словарь русского языка. М.
7. Фейерабенд, П. (1986) Избр. труды по методологии науки. М.
8. Touraine, A. (1969) La Societe post-industrielle. Paris.



## SFERA SIRTIDA JOYLASHGAN FIGURALAR YUZINI TOPISH USULLARI

**B. A. Mardonov***SamDAQU “Ijtimoiy va tabiiy fanlar”  
kafedrasida katta o’qituvchisi,***J. A. Sindarov***SamDAQU doktranti,*

**Maqolada** sfera sirtida joylashgan ikkiburchak va uchburchak tushunchasi, uning yuzasini topish masalasi qaralgan. Sferada joylashgan geometrik figuralarning xarakterli munosabatlarini trigonometrik formulalar orqali izohlash astronomiya va geodeziya sohasida ahamiyatga ega.

**Kalit so’zlar:** sfera, sfera sirtida joylashgan ikkiburchak, sferada joylashga uchburchak, sferik ortiqlik, yuza.

**В статье** рассмотрено понятие двуугольника и треугольника в сфере, нахождение площади её поверхности. Изучение характерных отношений геометрических фигур в сфере с использованием тригонометрических формул важно в астрономии и геодезии.

**Ключевые слова:** сфера, двуугольник размещенная на сфере, треугольник размещенная на сфере, сферический избыток, площадь поверхности.


**In article** the concept of a two-square and a triangle of sphere, a finding of the area of its surface is considered. Studying of characteristic relations of geometrical figures in sphere with use of trigonometrical formulas important in astronomy and a geodesy.

**Keywords:** sphere, a two-square placed on sphere, a triangle placed on sphere, spherical surplus, the surface area.

Yangi O’zbekistonimizda aviasozlik, mashinasozlik, gidrotexnika, qurilish, yer tuzilishi, geodeziya, kartografiya, asrtonomiya va boshqa ko’plab fanlarning masalalarini yechishda matematikaning trigonometrik munosabatlariga murojaat qilinadi.

Bunda tekislikdagi trigonometrik munosabatlardan tashqari sferik sitrda joylashgan figuralarning xarakterli munosabatlarini trigonometrik formulalar orqali izohlashga zarurat tug’iladi. Bunday zaruriyatlarni “Oliy geodeziya”, “Astronomik geodeziya”, “Sferik geodeziya” kabi fanlarini o’rgatishda ko’rish mumkin. Ushbu maqola sfera sirtida joylashgan eng sodda sferik figura - sferik ikkiburchak va sferik uchburchaklar elementlari orasidagi geometrik va trigonometrik bo’g’lanishlar yordamida uning yuzasini topish formulasini keltirib chiqarish va xulosalar olish maqsadida tayyorlandi.

Sfera markazidan o’tuvchi istalgan tekislikning sfera bilan kesishishidan hosil bo’lgan aylanasi katta aylana, boshqa barcha aylanalar kichik aylanalardir. Sferada



$M_1$   
1-rasm

joylashgan ikkita turli nuqtalarni sfera bo'ylab yo'ylar bilan tutashtirish mumkin. Bunday yo'ylar cheksiz ko'p bo'ladiki, ularning ichidan eng qisqa uzunlikka ega bo'lgan yoy alohida xarakterlidir, chunki bunday yoy uzunligini qaralayotgan sfera radiusi va mos markaziy burchak orqali ifodalasa bo'ladi. Sferaning ikkita nuqtasi orasidagi qisqa masofa deganda ularni tutashtiruvchi katta aylana yoyi tushuniladi [2].

Sferaning ikkita katta aylanalari chegaralab turgan qismiga sferik ikki burchak deyiladi (1-rasm). Sferik ikki burchakning burchaklari o'zaro teng, tomonlari ham o'zaro tengdir. Radiusi  $R$  bo'lgan sferadagi sferik ikkiburchakning tomonlari katta aylana uzunligining yarmi bo'lgani uchun, sferik ikkiburchak tomoni uzunligining gradus o'lchovi  $180^0$  ga tengdir, yoki radian o'lchovi uchun ushbu tenglik o'rinli  $\cup MM_1 = \frac{2\pi R}{2} = \pi R$  bo'ladi.


Sferik ikkiburchakning yuzisini hisoblash uchun uning burchagini  $M$ , yuzini  $S_{MM_1}$  deb

olib, ushbu proporsiyani tuzib mumkin:  $\frac{S_{MM_1}}{4\pi R^2} = \frac{M}{360^0}$ , bu yerda  $4\pi R^2$  – sfera sirtining yuzasi. Tuzilgan proporsiyadan sferik ikkiburchak yuzini hisoblash uchun quyidagi formulani hosil qilish mumkin

$$S_{MM_1} = \frac{M}{90^0} \cdot \pi R^2 \quad (1)$$

yoziqlan tenglikdan ko'rinadiki sferik ikkiburchak yuzi uning burchagini  $90^0$  ga bo'lishdan hosil bo'lgan sonni katta aylana chegaralab turgan doira yuziga ko'paytirishdan hosil bo'ladigan miqdorga teng ekan.

Sferaning bitta katta aylanasi ustida yotmaydigan uchta nuqtalarining har ikkitasidan o'tuvchi katta aylanalarning yo'ylari chegaralab turgan sferik sirt, sfera sirtida joylashga uchburchak yoki qisqacha sferik uchburchak deyiladi. Sferik uchburchakning uchlari va ularga mos burchaklarini bir xil bosh harflar bilan, burchaklar qarshisidagi tomonlarni (yo'ylarni) mos ravishda bir xil mos kichik harflar bilan belgilanadi. Masalan  $ABC$  - sferik uchburchak deganda  $A, B, C$  - sferik uchburchakning bir vaqtda uchlari va burchaklarini belgilanishini,  $a, b, c$  - sferik uchburchakning  $A, B, C$  burchaklari (uchlari) qarshisidagi tomonlari (mos katta aylana yo'ylari) belgilanishini bildiradi (2-rasm).



2-rasm

$ABC$  sferik uchburchak  $a, b, c$  tomonlari va  $A, B, C$  burchaklari uchun quyidagi munosabalar o'rinlidir: 1)  $a+b>c, a+c>b, b+c>a$ ; 2)  $a-b<c, a-c<b, b-c<a$ ; 3)  $0<a+b+c<360^0$ ; 4)  $180^0<A+B+C<360^0$ ; 5)  $A+B-C<180^0, A+C-B<180^0, B+C-A<180^0$ .

$ABC$  sferik uchburchak  $a, b, c$  tomonlari va  $A, B, C$  burchaklari uchun quyidagi munosabalar o'rinlidir: 1)  $a+b>c, a+c>b, b+c>a$ ; 2)  $a-b<c, a-c<b, b-c<a$ ; 3)  $0<a+b+c<360^0$ ; 4)  $180^0<A+B+C<360^0$ ; 5)  $A+B-C<180^0, A+C-B<180^0, B+C-A<180^0$ .

Sferik uchburchak ortiqligi (ekssessi) deganda  $A, B$  va  $C$  burchaklari orqali topiluvchi  $\varepsilon=A+B+C-180^0$  tenlik bilan aniqlanadigan, hamda  $a, b$  va  $c$  tomonlari orqali esa

$\operatorname{tg} \frac{\varepsilon}{4} = \sqrt{\operatorname{tg} \frac{p}{2} \cdot \operatorname{tg} \frac{p-a}{2} \cdot \operatorname{tg} \frac{p-b}{2} \cdot \operatorname{tg} \frac{p-c}{2}}$  tenglik (bunda  $2p=a+b+c$ ) bilan aniqlanadigan miqdor tushuniladi [1].

Radiusi  $R$  bo'lgan sferadagi  $ABC$  sferik uchburchakning  $S_{ABC}$  yuzasini hisoblash formulasini keltirib chiqaramiz. Qaralayotgan  $ABC$  sferik uchburchak uchun  $A_1B_1C_1$  simmetrik sferik uchburchak bo'lsin. U holda  $ABC$  sferik uchburchakning  $a, b, c$  tomonlari bo'yicha qo'shma bo'gan  $A_1BC, B_1AC, C_1AB$  sferik uchburchaklar paydo bo'ladi (3-rasm). Qo'shma sferik uchburchaklar yuzalarining yig'indisi ularning umumiy tomoniga mos burchakga to'g'ri keluvchi sferik ikkiburchakning yuziga teng bo'ladi. Bu tengliklarni belgilashga muvofiq quyidagicha yozib olamiz:  $S_{ABC} + S_{A_1BC} = S_{AA_1}$ ,  $S_{BAC} + S_{B_1AC} = S_{BB_1}$ ,  $S_{CBA} + S_{C_1BA} = S_{CC_1}$ . Yozilgan uchala tenglikning o'ng tomonida qaralayotgan sferik uchburchak burchaklariga mos sferik ikkiburchaklar yuzalarini topish formulalarini yozib, so'ngra uchala tenglikni o'zaro qo'shamiz

$$3S_{ABC} + S_{A_1BC} + S_{B_1AC} + S_{C_1BA} = \frac{\pi R^2}{90^0} \cdot A + \frac{\pi R^2}{90^0} \cdot B + \frac{\pi R^2}{90^0} \cdot C$$

bundan,

$$2S_{ABC} + S_{ABC} + S_{A_1BC} + S_{B_1AC} + S_{C_1BA} = \frac{A+B+C}{90^0} \cdot \pi R^2 \quad (2)$$

tenglikni hosil qilamiz. Keltirilgan 3-rasmga muvofiq  $C_1BA$  sferik uchburchak  $CB_1A_1$  sferik uchburchakka simmetrikdir. Simmetrik sferik uchburchaklarning yuzalari miqdor jihatdan o'zaro teng, ya'ni  $S_{C_1AB} = S_{CB_1A_1}$  shart bajariladi. Bu shartni (2) tenglikning chap tomonida inobatga olib va oxirgi to'rtta qo'shiluvchi qaralayotgan sfera sirti yuzasining yarmi ekanligidan,  $2S_{ABC} + 2\pi R^2 = \frac{A+B+C}{90^0} \cdot \pi R^2$  yoki, bundan

$$S_{ABC} = \frac{A+B+C-180^0}{180^0} \cdot \pi R^2$$

Oxirgi tenglikda  $A+B+C-180^0 = \varepsilon$  ekanini inobatga olib, sfera sirtida joylashgan uchburchak ya'ni sferik uchburchak yuzasini hisoblash formulasiga ega bo'lamiz:


$$S_{ABC} = \frac{\pi R^2}{180^0} \cdot \varepsilon$$

(4)

Demak,  $R$  radiusli sfera sirtida joylashgan  $MM_1$  sferik ikkiburchakning yuzasi  $S_{MM_1} = \frac{M}{90^0} \cdot \pi R^2$  formula bilan,  $ABC$

sferik uchburchakning yuzasi  $S_{ABC} = \frac{\pi R^2}{180^0} \cdot \varepsilon$  formula bilan

topilar ekan.



3-rasm

Misol. Agar radiusi  $R = 6700000 \text{ m}$  bo'lgan sferada joylashgan  $ABC$  sferik uchburchakning burchaklari  $A = 79^{\circ}33'20''$ ,  $B = 65^{\circ}28'20''$ ,  $C = 37^{\circ}52'40''$  ga teng bo'lsa, sferik uchburchakning eksessini va yuzini toping.

$\Delta$  Sferik uchburchak eksessini topish formulasi  $\varepsilon = A + B + C - 180^{\circ}$  ga ko'ra  $\varepsilon = 79^{\circ}33'20'' + 65^{\circ}28'20'' + 37^{\circ}52'40'' - 180^{\circ} = 0^{\circ}03'03''$  demak,  $\varepsilon = 0^{\circ}03'03''$ .

$ABC$  sferik uchburchakning yuzini topish formulasi

$S_{ABC} = \frac{\pi R^2}{180^{\circ}} \cdot \varepsilon$  dan foydalanib, berilgan kattaliklarni inobarga olib, smartfon

kalkulyatorida hisoblaymiz:  $\varepsilon = 0^{\circ}03'03'' = \left(0 + \frac{3}{60} + \frac{3}{3600}\right)^{\circ} = 0,0508^{\circ}$ ,

$R = 6700000 \text{ m} = 6700 \text{ km}$ ,  $S_{ABC} = (\varepsilon \div 180) \times \pi \times R^2$ ,  $S_{ABC} = 39800,698 \text{ km}^2 \blacktriangle$ .

Sferada joylashgan ikkiburchak va uchburchak xossalariidan, ularning yuzasini topish formulalaridan foydalanib, geodezik va astronomik tadqiqotlarda foydalanish mumkin bo'ladi. Yer sharida joylashgan katta miqdordagi maydonlarning yuzalarini uni uchburchaklar shaklida qismlarga ajratib, uchlari joylashish koordinalari yordamida oson topish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Степанов Н.Н. Сферическая тригонометрия /Учебное пособия/- Ленинград «ОГИЗ», 1948. 155-с.
2. Mamasoliyev Q., Mardonov B. Sferik trigonometriya /O'quv qo'llanma/-Toshkent. "MASHHUR-PRESS", 2019.-144с.

## XORIJLIKLARGA O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

**N.Xudoyberdiyeva**

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

*O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’limi yo‘nalishi*

*3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitishda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish bo‘yicha qilinayotgan amaliy ishlar va chet el fuqarolariga o‘zbek tilini o‘qitishda ayrim metodik jihatlar bayon etilgan.*

**Аннотация:** *В данной статье содержится информация о практической работе по развитию устной и письменной речи при обучении узбекскому языку как иностранному и методах, используемых при обучении узбекскому языку иностранных граждан.*

**Kalit so‘zlar:** *O‘zbek tili, og‘zaki nutq, yozma nutq, ta’lim jarayoni, lug‘at, yozish qobilyatlari, tinglash qobilyatlari, grammatika, to‘g‘ri talaffuz.*

**Ключевые слова:** *Узбекский язык, устная речь, письменная речь, учебный процесс, лексика, навыки письма, навыки аудирования, грамматика, правильное произношение.*

O‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitishda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish omillari samarali muloqot til o‘rgatishning asosi bo‘ladi. O‘zbek tili darslarida asosiy vazifa bu o‘quvchilarning nutq madaniyati va nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

2020-2030- yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘sha yilning 20-oktabrida PF-6084-son Farmoni e‘lon qildi<sup>13</sup>.

O‘zbek tilining fonetikasi, leksikasi, grammatikasi bo‘yicha nutqning og‘zaki va yozma shakllaridan keng va to‘g‘ri foydalanib ilmiy-amaliy ma’lumot berish o‘zga tilli o‘quvchilarni o‘zbek tilida to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish. Maktablarda o‘zbek tilining maqsadi o‘quvchilarni ijodiy fikrlash, fikrlarini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri bayon etish ko‘nikmalarini shakllanishiga qaratiladi.

Yozma nutq murakkab jarayon bo‘lib, u ko‘p vaqt va mehnat talab qiladi. Bunday nutq davomida inson o‘z o‘zini kuzatib boradi. Yozma nutqda savodxonlik va mazmun asosiy o‘rin tutadi. Yozma nutqni o‘stirish bevosita tilning grammatik qurilishi va lug‘at qatlamini mukammal o‘zlashtirish bilan bog‘liqdir.

### **YOZMA NUTQQA QO‘YILADIGAN TALABLAR:**

Yozma nutqdagi fikr qiziqarli, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon bayon etilishi kerak. Hamda adabiy til meyorlariga rioya qilish, til boyligidan keng va ijodiy foydalanish zarur.

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘sha yilning 20-oktabrida PF-6084-son Farmoni e‘lon qildi



“Yozma mashqlar nutqni silliqalaydi, nutqiy mashqlar esa yozish uslubini jonlantiradi” deydi- Mark Fabiy Kirintleon.<sup>14</sup> Xorijliklar o‘zbek tilidagi so‘zlarni to‘g‘ri yozishda muayyan tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bu esa yozma nutqda hamda og‘zaki muloqatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklarga olib keladimi. Umumta’lim maktablarining yuqori bosqichidagi o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlanish muommosi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda zamonaviy maktablarning maqsadi o‘quvchilarni madaniyatli shaxs sifatida shakllantirishdan iborat. Bu ularning chet tili haqida ma’lum bilimlarini egallashi va nafaqat tushunish balki unda erkin muloqat qilish qobilyatini shakllantirishdan iborat. O.A.Bryukova va D.V.Semenovalar takidlaganidek “Zamonaviy metodologiya fanida monolog va dialog shakllarida o‘z og‘zaki nutqini yaratish qobilyatini shakllantirish chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi sifatida belgilanadi va chet tili tushunchasi orqali ifodalanadi. Ma’lumki kommunikativ kompetensiya juda murakkab ko‘p komponentli tuzilishga ega”dir. Nutqni o‘rgatish umum ta’lim maktabining yuqori bosqichidagi o‘quvchilarining haqiqiy ehtiyojlari va qiziqishlariga javob beradigan mavzuga asoslanadi. O‘zbek tilida og‘zaki nutqni rivojlantirish omillari og‘zaki nutq tinglash va nutq ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilini chet tili sifatida rivojlantirishiga yordam beradigan omillar:

**Lug‘atlar:** har qanday tilda samarali og‘zaki muloqat qilish uchun lug‘at zarur. O‘quvchilar o‘z so‘zlarini ifoda etish va boshqalarni tushunish uchun ham keng so‘z boyligini rivojlantirish kerak.

Talaffuz: to‘g‘ri talaffuz o‘zbek tilida aniq muloqat qilish uchun juda muhimdir. O‘quvchilar o‘zbek tilidagi talaffuz qoidalariga haqida tushunchaga ega bo‘lishlari va o‘z malakalarini oshirish uchun muntazam ravishda mashq qilishlari kerak.

**Tinglash qobilyati:** kuchli tinglash qobilyatlari samarali muloqat qilish uchun juda muhimdir va o‘quvchilar suhbatlarda qatnashish uchun og‘zaki o‘zbek tilini tushunishlari kerak.

**Grammatika:** O‘zbek tili grammatikasi murakkab bo‘lishi mumkin. Uning qoidalarini o‘rganib mustaqil jumlar tuzishda qanday qo‘llashni tushunishi kerak.

**Yozish qobilyatlari:** Yozish- bu takomillashtirish uchun amaliy va fikr mulohazalarini talab qiladigan murakkab mahorat. O‘quvchilar jumlar va tegishli so‘z birikmalaridan foydalanishni va o‘zbek tili grammatikasi qoidalarini tushunishni o‘rganish kerak.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilini chet sifatida o‘qitishda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishda lug‘at bilan ishlash, tinglash qobilyatlari, grammatika, o‘qish, to‘g‘ri talaffuz qilish, yozish qobilyatlarini o‘z ichiga olgan. Ushbu omillarga e’tibor qaratish va o‘quvchilarga amaliyot o‘tash va fikr-mulohaza olish imkoniyatini berish orqali o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilariga o‘zbek tilida kuchli muloqat qobilyatlarini rivojlantirishga yordam berishga qaratilgan. Xorijliklarga o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgatishda kerak bo‘lgan uchta jihatni ta’kidlash mumkin:

<sup>14</sup> <https://newjournal.org/index.php/01/article/download/9074/8781/14262>



- A) Olmoshlarni o'rgatish.
- B) Fe'llarni o'rgatish.
- C) Oddiydan murakkabga tomon usuli orqali o'rgatishga qaratilgan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.T-Ma'naviyat.2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrida PF-6084-son Farmoni.
3. R.A.Yo'ldoshev Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi.- Toshkent: O'zPFTI,2015.

#### **INTERNET SAYTLARI:**

1. <http://www.gazeta.uz>
2. <http://www.newjournal.uz>

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**Ergasheva Nodira Ulug`bek qizi**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Maktabgacha ta`lim fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida ilg`or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta`lim sifatini oshirish, maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta`lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo`llaniladigan zamonaviy ta`lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish hamda STEAM texnologiyasidan foydalanishning samaradorligi haqida so`z yuritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *STEAM, estetik, lapbook, intellectual, ta`lim-tarbiya.*

**Аннотация:** *Принимая во внимание передовой зарубежный опыт в дошкольных образовательных организациях, создавая условия для интеллектуального, нравственного, эстетического и физического развития детей во всех аспектах, повышая качество дошкольного образования, коренным образом повышая качество подготовки детей к школе в дошкольных образовательных организациях, внедрение в образовательный процесс современных образовательных программ и технологий, широко используемых в мировой практике, и повышение эффективности использования технологии STEAM.*

**Ключевые слова:** *STEAM, эстетический, лэпбук, интеллектуальный, образовательный.*

**Abstract:** *Taking into account advanced foreign experience in preschool educational organizations, creating conditions for the intellectual, moral, aesthetic and physical development of children in all aspects, increasing the quality of preschool education, fundamentally improving the quality of preparing children for school in preschool educational organizations, introduction of modern educational programs and technologies widely used in the world practice into the educational process and the effectiveness of using STEAM technology.*

**Keywords:** *STEAM, aesthetic, lapbook, intellectual, education.*

Maktabgacha ta`lim uzluksiz ta`lim tizimining birlamchi bo`g`ini hisoblanib, bu soha har tomonlama sog`lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g`oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ushbu tizimda amalga oshirilayotgan o`zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi Davlatimiz rahbarining doimiy e`tiborida bo`layotganligini guvohi bo`lmoqdamiz. Jumladan, ilg`or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta`lim sifatini oshirish, maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta`lim-tarbiya

jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yildi."

STEAM - hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanib, ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog'liqligini ko'rsatib o'rgatiladi. Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasi fanining vazifasi - talabalarga STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish usullarini o'rgatish, STEAM ta'lim texnologiyasini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashda turli xil faoliyatlarni integratsiyalash, maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash vazifalarini bajaradi.

STEAM bolalarda muammolarni tushunish, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa, kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Bugungi kunda STEAM - ta'lim dunyodagi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi. STEAM texnologiyasida bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, STEM ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchalik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat - muammoni hal qilish (problem-solving skills) qobiliyati shakllanadi. O'zbekiston Respublikasida STEM ta'lim tizimini davlat ta'lim tizimiga kiritish bo'yicha o'tgan 2 yil mobaynida ishlar amalga oshirilmogda. Lekin xususiy maktablarda buning imkoni osonroq bo'lsa, umumiy ta'lim tizimiga STEM ta'lim tizimini kiritishda bir qator muammolar borligi ta'kidlanmogda. 2019-yilning dekabr oyida Xalq ta'limi vazirligi Xitoyda bo'lib o'tgan Shanghai International STEM Education Expo (STEAMEX) ko'rgazmasida ishtirok etdi.

O'zbekistonda STEM ta'lim tizimini umumiy xalq ta'limiga tadbiiq etish borasida AQSH mutaxassisi jalb qilindi. Undan tashqari Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan yurtizmida tashkil etilgan prezident maktablarida STEM ta'lim tizimi orqali ta'lim beriladi. Zamonaviy tadqiqotlar STEM tizimi maktab ta'lim tizimiga oid bo'lgani bilan, uni eng kichik yoshdan, maktabgacha davrdan boshlab tadbiiq etish muhim ekanligini

ta'kidlamoqda. Bolaning eng kichik yoshidan boshlab STEM tizimiga olib kirishning ahamiyati, muvaffaqiyat ildizidir. Aslida STEM fikrlash bolalikdan boshlanadi. Bola yurishni bilmagan paytida ham jarayonlarning bog'liqligi, ketmaketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar har tomonlama rag'batlantirilishi lozim. Maktabgacha ta'lim tizimida STEM tizimi bo'yicha faoliyat kundalik ish rejasi asosida olib borilishi mumkin. STEM ta'lim tamoyillarga asoslanadigan faoliyatlarni ishlab chiqish va amalga tadbiq etish muhim hisoblanadi.

**Misol.** STEM ta'lim tizimini kitoblar orqali kichik yoshdagi bolaning hayotiga olib kirish samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bunda tarbiyachi tomonidan amaliy tarzda tayyorlangan **'Lap book'** ya'ni cho'ntak kitobini misol tariqasida keltirsak bo'ladi. **Lapbook** nisbatan yangi o'quv vositasidir. Birinchi marta amerikaliklar lapbuklarni yaratishni boshladilar. Lapbook - cho'ntaklari, eshiklari, derazalari, yorliqlari va harakatlanuvchi qismlari bo'lgan yig'ma kitob bo'lib, unda bitta mavzu bo'yicha materiallar mavjud. Laptop nimadan yasalgan? Noutbuk A3 jildidan iborat bo'lib, unga cho'ntaklar, yig'ma kitoblar, derazalar va noutbuk mavzusi bo'yicha vizual ma'lumotlar joylashtirilgan boshqa tafsilotlar: qiziqarli o'yinlardan tortib lug'at va taqdim etilgan ko'plab mazali ma'lumotlarga qadar.

Zamonaviy talablarga javob berish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti o'qituvchilari doimiy ravishda o'qishlari, o'z-o'zini tarbiyalashlari va kasbiy mahorat darajasini oshirishlari kerak. Demak, ular uchun ta'lim sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlarga munosib munosabatda bo'lishni, hamfikrlar jamoasida ishlashni, o'quvchilar bilan o'quv-tarbiyaviy ishlarni malakali va samarali tashkil etishni, hamkorlik aloqalarini samarali yo'lga qo'yishni o'rganish muhimdir. ota-onalari bilan ta'lim muammolarini hal qilish, ta'lim mazmunini mustaqil ravishda tanlash va uni moslashtirish, ma'lum bir guruhdagi bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktabgacha ta'lim bo'yicha Federal davlat ta'lim standarti talablariga e'tibor qaratish.

Maktabgacha ta'limning Federal davlat ta'lim standarti joriy etilishi munosabati bilan har bir o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida yangi yondashuvlar, g'oyalarni izlaydi. Shunday qilib, biz mutlaqo yangi, qiziqarli, ajralmas o'quv quroli – noutbukni o'rgana boshladik va o'z ishimizda foydalana boshladik. U bolalar bog'chasida ham, uyda ham qo'llanilishi mumkin. Laptop qiziqarli va foydali, chunki u kattalar va bolalar tomonidan birgalikda yaratilgan. dolzarbligi Ushbu mavzuning mohiyati shundaki, lapbook loyiha yoki mavzu haftasi materiallarini birlashtirish va takrorlashning ajoyib usuli hisoblanadi. Laptop bolaga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ma'lumotni tartibga solishga va materialni yaxshiroq tushunishga va eslab qolishga yordam beradi (ayniqsa, bola ingl.)

Kelajakda bola mustaqil ravishda ma'lumot to'plash va tartibga solishni o'rganadi - insholar va kurs ishlarini yozish uchun yaxshi tayyorgarlik <sup>37</sup>.

Kichik yoshdagi bolalar uchun tayyorlanadigan kitoblarni STEM ta'lim tizimi doirasida qanday strukturalashtirish mumkin:

**S-Science** Kichik yoshdagi bolalarni fan olamiga olib kirishda hayvonot olami, dengiz hayvonlari, o'simlik va hashoratlarni turli xil rasmlar ,applikatsiyalar yordamida,tabiiy maxsulotlar yordamida yasab yoki chizib ular haqida malumot berishimiz mumkin bo'ladi



Ko'p yillik tajribalarga asoslanib shuni alohida qayd etish zarurki, o'quvchilar bilan dialogik va polilogik muloqot va munosabatlarida bo'lish ko'zlangan natijani kafolatlaydi.

Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifalaridan kelib chiqqan holda tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Buning uchun ta'lim-tarbiya jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishi, faolligini oshirib muttasil ravishda rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, o'quv muammolari tarzida ilgari surilishi, bu muammolarning mazmunini yoritishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, yo'naltiruvchi matn, loyiha, mashq, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash talab etiladi. [3]

### ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълим ва тарбияда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш услугиёти. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Истеъдод» жамғармаси. Тошкент – 2014 й.

2. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Холиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши. Тошкент, ТДПУ, 2013 й.

3. X.B.Muxamedova. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. "Boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo'nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va echmilar". (III-qism) Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent 2016 yil. 106-b.

## DORIVOR O'SIMLIKLAR TAHLILI

**Kurbanova Nargiza Ulmasovna**

*ADTI farmasevtik fanlar kafedrası assistenti*

**Annotatsiya:** *Dorivor o'simliklarni tahlil qilish uzoq tarixga ega, ayniqsa o'simliklar sifatini baholashda. Birinchi usullar ta'm, hid va tashqi ko'rinishning jismoniy sezgilaridan foydalangan holda organoleptik edi. Keyin asta-sekin ular yanada takomillashtirilgan instrumental usullarga olib keldi. Turli mamlakatlarda o'zlarining an'anaviy dori-darmonlari mavjud bo'lsa-da, Xitoy hozirda dorivor o'simliklarni tahlil qilish bo'yicha nashrlar soni va ularning farmakopeyasiga kiritilganlar soni bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Ushbu nashrlardagi monografiyalarda amalga oshiriladigan tahlil turiga oid ko'rsatmalar berilgan va ishlab chiqaruvchilar uchun bu odatda tobora takomillashib borayotgan asboblarga kirishni talab qiladi. Biz analitik tahlilning ko'plab sohalarida, xususan xromatografik va spektroskopik usullarning rivojlanishi va ushbu usullar orasidagi o'tkazmalarining rivojlanishiga guvoh bo'lamiz. Ko'p o'lchovli tahlil dasturi yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyati metabolomikaga eshiklarni ochdi va bizga dorivor o'simliklarda uchraydigan kimyoviy birikmalarning ko'p navlarini tushunish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratdi, bu bizga nafaqat o'simliklar va dorilar sifatiga, balki ularning klinik tadqiqotlar uchun yaroqliligiga ham ko'proq ishonch hosil qilish imkonini beradi. Texnologiyani takomillashtirish o'simliklarni samarali tahlil qilish va tasniflash, ifloslantiruvchi moddalar va iflosliklarni juda past konsentratsiyalarda aniqlash imkonini berdi. Biroq, texnologik taraqqiyot bizga o'simlik tarkibiy qismlariga asoslangan yuqori sifatli dori-darmonlarni yaratish uchun zarur bo'lgan barcha savollarga javob bera olmaydi va sifatni baholashning an'anaviy usullari bugungi kunda ham muhim bo'lib qolmoqda.*

**Kalit so'zlar:** *yutuqlar; tahlil; murakkablik; o'simlik tibbiyoti; dorivor o'simlik; farmakopeya; sifat.*

Dorivor o'simliklar ming yillar davomida butun dunyo bo'ylab mahalliy jamoalarda shifo manbai bo'lib kelgan. Shunga qaramay, u dunyo aholisining taxminan 85% uchun birlamchi tibbiy yordam vositasi sifatida (Peshich, 2015) va dori-darmonlarni qidirish manbai sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda, chunki barcha sintetik dorilarning 80% undan olinadi (Bauer va Brennstrup, 2014). Shu bilan birga, so'nggi bir necha yuz yil ichida o'simlik moddalarini tahlil qilish usullarini joriy etish, rivojlantirish va takomillashtirishda sezilarli o'sish kuzatildi. Ming yillar davomida odamlar dorivor o'simliklar va oziq-ovqat mahsulotlarini ularning yaroqliligi va sifatini organoleptik baholash asosida aniqladilar va tanladilar, ammo so'nggi etti o'n yillikda, masalan, qog'oz xromatografiyasi kabi asosiy analitik usullar ixtiro qilinganidan beri, ko'rish, teginish va hidga asoslangan tahlil usullarining jadal rivojlanishi boshlandi. murakkab asboblardan foydalanish. Ushbu sezgi mexanizatsiyasi nisbatan yaqinda paydo bo'lgan bo'lsa - da, tarixiy jihatdan ilmiy inqilob davomida koinotning tashqi va ichki qismida kontseptual kengayish inson ko'ziga etib

bo'lmaydigan darajada sodir bo'ldi, bu esa sezgi organlariga yordam beradigan eng qadimgi analitik vositalar-teleskop va mikroskopning rivojlanishiga olib keldi. Strukturaviy, kimyoviy va atom darajalarida yangi mikroskopik olamlarning dastlabki kashfiyotidan beri inson idrokining sezgirligi va diapazoni kengaytirildi va mustahkamlandi.

Laboratoriya kontsepsiyasi Evropada faqat 1600-yillarning boshlarida rasmiy ravishda shakllanganligini hisobga olsak, tezkor taraqqiyot ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Dastlab faylasuflar, shifokorlar va olimlarning ish xonalariga qo'shimcha sifatida u tabiatni o'rganish va empirik ma'lumotlarni to'plash uchun maydonga aylanadi (Uilson, 1997), bu erda tadqiqotlar kunduzgi yorug'lik yoki ob-havo imkon beradigan ma'lum vaqtlarda emas, balki tahlilchiga qulay vaqtda o'tkazilishi mumkin. Bu yanada rasmiylashtirilgan analitik tadqiqotlar yo'lidagi kichik, ammo muhim qadam edi.

Zamonaviy tahlilda qog'oz xromatografiyasi va ancha oldingi kolorimetriya kabi alohida usullar paydo bo'ldi. Buning ortidan LC-UV kabi erta o'tkazmalar paydo bo'lgunga qadar ushbu usullarning kengroq doirasi va qo'llanilishi kuzatildi, ular so'nggi paytlarda har bir alohida usulga xos analitik afzalliklardan foydalangan holda ko'plab ko'p o'tkazmali asboblarni klasterlari bilan yakunlandi. Defis bilan tavsiflangan analitik usullarning paydo bo'lishi ko'p jihatdan dorivor o'simlikni tanlashda sodir bo'ladigan organoleptik sintezga o'xshaydi; uni ko'rib chiqish, hidlash va tatib ko'rish orqali siz uning sifatini to'g'ri aniqlash va baholash ehtimolini oshirish uchun turli xil sezgilarning kombinatsiyalaridan foydalanasiz, erkinlik ko'rsatkichlarini/statistik darajalarini oshirasiz. Defis bilan tavsiflangan ushbu usullarning paydo bo'lishi va qo'llanilishi faqat kompyuter tizimlari va ma'lumotlarni boshqarish vositalarining rivojlanishi bilan mumkin va foydali bo'ldi, bu esa yaratilgan katta hajmdagi instrumental va analitik ma'lumotlardan ma'lumotlarni tez va tanlab sintez qilish imkonini beradi.

Biroq, so'nggi paytlarda o'simlik materiallarini tahlil qilish (va umuman tahlil qilish) rivojlanishiga eng katta ta'sir katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash, o'zlashtirish va inson tomonidan o'qiladigan shakllarda yanada mazmunli foydalanish mumkinligi bilan bog'liq. Transferlar yordamida kombinatorial asboblarni to'plamidagi tarixiy yutuqlar singari, barmoq izlari, metabolomik profillash va naqshni aniqlash algoritmlari kabi kombinatorial ma'lumotlarni qayta ishlash usullari paydo bo'ldi, bu esa operator vaqtini va talab qilinadigan bilimlarni qisqartirish bilan birga analitik imkoniyatlarni yanada kengaytiradi. Ushbu tendentsiya analitik usullarning rivojlanish sur'atlarini yanada tezlashtirdi va ular bilan bog'liq tadqiqotlar tezligi va imkoniyatlarini oshirdi. Ushbu maqolada biz analitik usullarning roli va rivojlanishini yaxshiroq tushunish uchun nashr tendentsiyalari va farmakopeyadagi o'zgarishlarni tahlil qilamiz. Dastlabki kashfiyot va rivojlanishdan boshlab, o'simlik tibbiyotida chuqur madaniy va uzoq muddatli tarixiy ildizlarga ega bo'lgan Osiyo mamlakati bo'lgan Xitoyga alohida e'tibor qaralib, zamonaviy rivojlanish va qo'llanilishgacha.

So'nggi paytlarda CHP dorivor o'simliklarni tahlil qilishda tobora ko'proq rol o'ynayotgan bo'lsa-da, CHP rivojlanishiga G'arb farmakopeyalari katta ta'sir ko'rsatdi. Tarixiy jihatdan dorivor o'simliklarni aniqlash, tayyorlash va tahlil qilish "Shengnong Benzao Jing" (Shengnong Materia Medica, milodiy 25-220) kabi klassik matnlarga



asoslangan bo'lib, unda 365 o'simlik va 113 retseptning toifasi va sifati ta'mga qarab baholangan. Achchiqlanish, shirinlik, sho'rlik va hatto neytral ta'mning organoleptik hissiyotlari preparatning maqsadi va qo'llanilishini ko'rsatadi, deb ishonilgan. Ehtimol, Xitoyning eng nufuzli farmatsevtika monografiyasi "Benzao Gangmu" (tibbiyot materiallari to'plami, milodiy 1368-1644) bo'lib, unda 1892 ta o'simlik tavsifi va 11 096 ta retsept mavjud bo'lib, ular 16 bo'lim va 60 ta buyurtma bo'yicha saralangan bo'lib, tashqi ko'rinish, ta'm va hid autentifikatsiya va sifatning kalitidir.

Biroq, hozirgi Xitoy farmakopeyasining zamonaviy formatining asosiy kashshofi 1930-yillarda 670 ta dori bilan bosilgan. Ushbu dastlabki bosqichda ham Buyuk Britaniya, Germaniya, Amerika va Yaponiya kabi o'sha paytdagi hukmron G'arb davlatlari Xitoy tibbiy materiallarini tan olish, tasniflash va sifatini ta'minlash bo'yicha konsensusni tushunish va shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelishdi. Shu vaqt ichida g'arbiy uslubda "ilmiy jihatdan boshqariladigan" kasalxonalarini materiallar bilan ta'minlashda qiyinchiliklar yuzaga keldi. Dastlab, Yaponiya 1886 yilda nemis farmakopeyasining tarjimasini qabul qilganligi sababli, xitoyliklar 1927 yilda London va Britaniya savdo palatalarining birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan Xitoy tiliga tarjima qilingan Britaniya farmakopeyasidan foydalanib, unga ergashishlari mumkin edi. Biroq, birinchi navbatda, to'rtta ijarachi o'rtasidagi ba'zi kelishmovchiliklarni bartaraf etish kerak edi.

O'sha paytda amerikaliklar tomonidan o'rnatilgan farmakopeya standartlarini ishlab chiqarish va saqlash uchun zarur bo'lgan ko'plab texnologik talablar xitoyliklarning imkoniyatlari va texnologik jihozlaridan tashqarida edi. Yaqinda Amerikada 1926 yilda nashr etilgan Amerika Qo'shma Shtatlari farmakopeyasining xitoycha tarjimasini nashr etildi. Akonit, digitalis, epinefrin va insulin uchun qat'iy Amerika standartlari yangi farmatsevtlar tomonidan ishlab chiqilishi kerak edi yoki chet elda o'qitilgan farmatsevt (Read, 1930). Xitoy versiyasiga Buyuk Britaniya va AQSh farmakopeyalarida tasvirlangan malhamlar kabi dorilar kiritilgan. Kodein va glyukoza kabi siroplar, shuningdek, nasha damlamalari inglizlarning ta'siri tufayli paydo bo'ldi. Xitoydagi chet el fuqarolari mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini o'zlashtirishda qiynalmoqda va "ichakni davolash uchun o'tkir ehtiyoj"ni da'vo qilmoqda. Shuning uchun o'sha davrdagi dorilar - albumin, aspidium va emetin kiritilgan. Difteriya, qoqshol va chechakka qarshi vaksinalar AQSh sog'liqni saqlash vazirligining ko'rsatmalariga muvofiq saqlanib qoldi.

Nemis kimyogarlari allaqachon kimyoviy birikmalarning chiqarilishi bilan obro' - e'tibor qozonishgan, ularning aksariyati tibbiyotda ishlatilgan va oksalat kislotasi, pirogal kislotasi va brom kabi yapon farmakopeyasiga kiritilgan. Shunday qilib, yangi Xitoy farmakopeyasining taxminan 25 foizini tashkil etadigan ushbu sohalar uchun asosan mavjud nemis-yapon analitik usullari ishlatilgan. O'simlik va hayvonot materiallari uchun Buyuk Britaniya va Amerikadan olingan ko'proq analitik usullar va dorilar kiritilgan.

Kimyoviy birikmalarning to'g'ri tarjimasini va nomini kelishish ham muammoli bo'lib chiqdi, masalan, "natrium chloratum" va "sodii chloridum" kabi nemis-latin va ingliz-Amerika tavsiflari o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilishga urinishda. Lotin tilining umumiy elementlari evropaliklar va amerikaliklar o'rtasida o'zaro tushunishga yordam berdi, ammo Xitoy tiliga tarjima qilish qiyin edi. Yapon farmakopeyasidan nomlar va

tavsiflarni qabul qilish osonroq bo'lishi mumkin, ko'pincha Xitoyda bo'lgani kabi Osiyo xarakteriga ega (xanzi), ammo o'sha paytda materik Xitoyda kuchli millatchilik kayfiyati tufayli bunga qarshilik ko'rsatildi (Rid, 1930).

Yaponiyaliklar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy fonetik transliteratsiya qilingan dori nomlarini afzal ko'rishsa-da, Yaponiya farmakopeyasida kamfara, zanjabil, aloe, kardamon va yulduzli qizilmiya nomlarini o'z ichiga olgan 60 ga yaqin Xitoy materia medica nomlari saqlanib qolgan.

O'simliklarni aniqlash va umumiy nomlar bilan bog'liq qiyinchiliklar nafaqat Osiyoga xos edi. 1900-yillarning boshlarida, Evropa va Amerika siyosiy kengayishi davrida Evropada o'xshash o'simliklar uchun ko'p tilli atamalarni kataloglashtirishga urinishlar bo'lgan, masalan, lotin, Arab, arman, ingliz, frantsuz, nemis, italyan va turk tillarida "o'simlik nomlarining rasmi poliglot lug'ati" nashr etilgan (bedevian, 1936), sakkizta tilda 3657 o'simlikni kataloglash.

Dorivor o'simliklar — odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar — giyohlar. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10—12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik va is xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qariyb 40—47% o'simlik xom ashyolaridan olinadi. O'simliklar murakkab tuzilishiga ega bo'lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo'lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o'simliklarning quritilgan o'ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi (ur'ugi), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan doridarmon tarzida foydalaniladi.

### **DORIVOR O'SIMLIKLAR**

Dorivor o'simliklarni 2 xil tasniflash qabul qilingan: 1) ta'sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab — alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar, 2) farmakologik ko'rsatkichlariga qarab — tinchlantiruvchi, og'riqqoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak-tomir tizimiga ta'sir qiluvchi, markaziy nerv sistemasini qo'zg'atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqalar. Dorivor o'simliklarning ta'sir etuvchi moddalari alkaloidlar, turli glikozidlar (antraglikozidlar, yurakka ta'sir etuvchi glikozidlar, saponinlar va boshqalar), flavonoidlar, kumarinlar, oshlovchi va shilliq moddalar, efir moylari, vitaminlar, bo'yoq moddalar, fermentlar, fitonsidlar, kraxmal, oqsillar, polisaharidlar, azotli moddalar, moy hamda moy kislotalari va boshqa birikmalar bo'lishi mumkin.

Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri ular tarkibidagi kimyoviy birikmalar miqdoriga bog'liq. Ushbu birikmalar o'simlik qismlarida turli miqdorda to'planadi. Preparatning yuqori sezuvchanligi va sifati davri ularning gullash va urug'lanish davri boshlangan vaqtga to'g'ri keladi. Dorivor moddalar buyraklarda, ba'zi o'simliklarning barglari yoki poyalarida, ba'zi o'simliklarning gullari yoki mevalarida, ba'zi o'simliklarning ildizlari yoki qobig'ida to'planadi. Shuning uchun ular asosan ko'p miqdordagi biologik faol moddalarni o'z ichiga olgan o'simliklarning qismlarini yig'adilar. O'simliklarning ildizlari,

ildizpoyalari, lampochkalari va ildiz mevalari odatda o'simlikning harakatsiz davrida — kech kuzda yoki o'simlik uyg'onishidan oldin — erta bahorda tayyorlanadi. O'simlikning mevalari va urug'lari etuklashganda yig'ib olinadi, chunki bu vaqtda ular dorivor moddalarga boy. Yangi yig'ilgan dorivor o'simlik mahsulotida namlik mavjud (er usti organlarida 85% gacha, ildizlarda 45% gacha). Agar bu namlik yo'qolmasa (quritish paytida), o'simlik chirydi va dorivor moddalar parchalanadi va yaroqsiz holga keladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абудау М., Ферхат М. А., Хазит М., Ариньо А., Дженан Д. (2018). Экстракт эфирного масла из кожуры апельсина (*Citrus sinensis* L.), получаемый в микроволновой печи без растворителей: влияние на срок годности ароматизированных жидких цельных яиц при хранении в коммерческих условиях. [Препринт]. Доступно по адресу: <https://www.preprints.org/manuscript/201801.0055/v12018010055> (Дата обращения: 15 августа 2018 г.). 10.20944/preprints201801.0055.v1 [Перекрестная ссылка]
2. Эш Р. Ф. (1988). Эволюция сельскохозяйственной политики. Китай, кварт. 116, 529-555. 10.1017/S0305741000037887 [Перекрестная ссылка] [Google Scholar]
3. Бахагхигат Х. Д., Фрей К. Э., Синовек Р. Э. (2018). Последние достижения в технологии модуляторов для комплексной двумерной газовой хроматографии. Тенденции в области анализа данных. Химия. 113, 379-391. 10.1016/j.trac.2018.04.016 [Перекрестная ссылка] [Google Scholar]
4. Бауэр А., Бренstrup М. (2014). Промышленная химия натуральных продуктов для поиска и разработки лекарственных средств. *Natural Prod. Rep.* 31 (1), 35-60. 10.1039/C3NP70058E [PubMed] [Перекрестная ссылка] [Google Scholar]
5. Холиқов К., О'zbekiston janubidagi dorivor o'simliklar, Т., 1992;
6. Ножиматов Қ.Н., Yo'ldoshev К.Ү., Shogulomov U.Sh., Ножиматов О.Қ., Shifobaxsh giyoxlar dardlarga malham (Fitoterapiya), Т., 1995;
7. М urdoxayev Yu.M. Kultura lekarstvennix rasteniy v O'zbekistane, Т., 1988. Qahhor Ножиматов. Экономнка соцнумм №10(89) 2021

**ОСОБЕННОСТИ ИННОВАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ ИРАНА****Салихова А.М.***старший преподаватель кафедры «Экономика стран Востока»  
Ташкентского государственного университета востоковедения*

**Аннотация.** Данная статья посвящена национальной политике Исламской республики Иран в области науки, технологий и инноваций. Несмотря на экономические санкции, наложенные на Иран, страна демонстрирует удивительные результаты достижения нанотехнологий в приоритетных областях, включая здравоохранение, водные ресурсы и окружающую среду, энергетику и строительство.

**Ключевые слова:** инновация, инновационная система, технопарк, бизнес-инкубатор, Кремниевая долина, наукоемкая и технологическая продукция, нанотехнология, стартап.

**FEATURES OF IRAN'S INNOVATION POLICY****Salikhova A.M***Senior Lecturer of the Department "Economics of the East"  
Tashkent State University of Oriental Studies*

**Abstract.** This article is devoted to the national policy of the Islamic Republic of Iran in the field of science, technology and innovation. Despite the economic sanctions imposed on Iran, the country is demonstrating amazing progress in nanotechnology in priority areas including healthcare, water resources and environment, energy and construction.

**Keywords:** innovation, innovation system, technology park, business incubator, Silicon Valley, knowledge-intensive and technological products, nanotechnology, startup.

Экономика Ирана занимает 19-е место среди стран мира по объёму ВВП по ППС, который оценивался в 1,81 трлн долларов. Иран — один из самых многообещающих рынков мира в сфере IT и мобильных коммуникаций. Иран активно ориентирован на инновации и наукоемкие отрасли промышленности. Налицо активное развитие медицины — 21-е место в мире, нанотехнологий — 14-е место в мире, лазерных технологий, генной инженерии, есть успехи в освоении космоса — запуски спутников, включая военный «Нур» в феврале 2020 года .

Политику Ирана в области науки, технологий и инноваций можно подразделить на три этапа:

1. Развитие высшего образования и рост научных публикаций (с 1990 года).
2. Развитие исследований и новых технологий (с 2000 года).
3. Переход к инновациям и экономике, основанной на знаниях (с 2010 года).

Модель управления инновационной системой Ирана опирается на документы, формирующие национальную политику в области науки, технологий и инноваций (НТИ). К основным относятся такие документы, как принятый в 2005 г. «Видение 2025», который разработан Советом по определению политической целесообразности (Expanding Discernment Council of the System – EDCS), и «Национальный генеральный план по науке и образованию» (National Master Plan for Science and Education – NMPSE), одобренный в 2011 г. Эти два документа также называют Всеобъемлющей научной дорожной картой. Всего в 2002–2018 гг. было принято 13 важных государственных документов. Вместе они служат руководством для национальной программы в области НТИ, в котором прописаны цели, этапы и процессы реализации.

С 2005 года иранские власти активно поддерживают создание разнообразных технопарков и бизнес-инкубаторов. Самый крупный и известный из них, технопарк «Пардис», называют иранской Кремниевой долиной.

В 2010-х годах, на фоне разрядки отношений с Западом и хороших нефтяных поступлений в бюджет, в стране случился бум высокотехнологичных компаний и IT-стартапов. В 2013 году всего две компании были зарегистрированы как наукоёмкие. В 2015 их уже было 1610, а сегодня — более 5000.

В 2014 г. Верховный лидер обнародовал четыре ключевые цели национальной политики в области науки и технологий.

1. Непрерывное стремление завоевать авторитет в области науки и техники в мире с акцентом на следующие задачи:

- развитие науки, инноваций и теоретических исследований;
- продвижение глобальных позиций в науке и технологиях и становление в качестве лидирующего научно-технического центра в мусульманском мире;
- развитие фундаментальной науки и фундаментальных исследований;
- достижение результатов в передовых областях науки и техники за счет специальных мер в политике и планировании.

2. Оптимизация структуры системы образования и исследований для достижения целей, указанных в документе «Видение 2025», в соответствии с развитием науки с акцентом на следующие задачи:

- управление знаниями и интеграция разработки стратегической политики, планирования и мониторинга в области науки и техники, а также постоянное продвижение показателей науки и технологий и обновление комплексной научной дорожной карты с учетом глобальных и региональных научно-технических разработок;
- поддержка в создании и расширении научных и технологических парков;
- выявление элиты, развитие исключительных специалистов, сохранение и привлечение человеческого капитала;
- увеличение расходов на исследования как минимум до 4% ВВП к концу 1404 г. с упором на оптимальное использование ресурсов и повышение производительности.



3. Улучшение взаимосвязи между высшим образованием, исследовательскими и технологическими системами и другими стратегическими секторами с акцентом на следующие задачи:

- увеличение доли науки и технологий в национальном доходе и экономике, повышение национальной мощи и эффективности;
- предоставление денежной и нефинансовой поддержки процессов, которые позволяют трансформировать идеи в продукт, и увеличение до 50% доли высокотехнологичной продукции и услуг и отечественных технологий в ВВП;
- развитие и укрепление национальных и международных коммуникационных сетей между университетами, исследовательскими центрами и отечественными и зарубежными предприятиями по развитию технологий и инноваций, а также улучшение сотрудничества на уровне государственных институтов с учетом приоритетов исламских стран.

4. Развитие конструктивного сотрудничества в области науки и технологий с другими странами и аккредитованными научно-техническими центрами во всем мире и регионе, особенно в исламском мире, наряду с усилением независимости страны с акцентом на следующие задачи:

- развитие отраслей и услуг, основанных на современной науке и технологиях, и оказание поддержки производству и экспорту наукоемкой и отечественной технологической продукции, особенно в приоритетных областях, за счет улучшения показателей экспорта и импорта в стране;
- принятие необходимых мер по передаче технологий и приобретению знаний для разработки и производства продукции в стране с использованием емкости национального рынка в отношении импортируемой продукции;
- использование научно-технологических возможностей иранских экспатриантов и привлечение видных исследователей и экспертов из других, особенно из исламских, стран;
- достижение признания в оценке научного вклада и предоставление возможностей для использования результатов национальных и международных исследований, особенно в странах исламского мира.

Государственная политика для устойчивой экономики ставит технологии и инновации во главу угла как ключевые факторы экономического роста. Этот документ был обнародован Верховным лидером в феврале 2014 г. для продвижения политической повестки в отношении местных возможностей путем принятия более ориентированного на внешний мир подхода к политике развития.

Иранские власти активно поддерживают нанотехнологии, предоставляя помощь стартапам на каждом этапе их развития. При этом они направляют исследования на решение сугубо прикладных проблем: разработку лекарств, промышленные нужды — например, производство пластика и стройматериалов, очистку воды. Эту деятельность координирует Совет по инновациям в области нанотехнологий, который объединяет бизнесменов и госструктуры.

В 2015 году был утвержден новый «План стратегии будущего» на 2015-2025 годы. Благодаря реализации данной стратегии и его трех дополнительных этапов до 2018 года, Иран занял четвертое место в мире по производству нанотехнологий. В настоящее время в этой отрасли работают более 29 тысяч исследователей, более 460 тысяч студентов обучаются в университетах на специальностях по направлению нанотехнологий. Кроме того, 181 компания производит 447 позиций продуктов и оборудования, а 65 компаний также предоставляют услуги по развитию бизнеса для распространения нанотехнологий в промышленности. На сегодняшний день уже есть достижения нанотехнологий в приоритетных областях, включая здравоохранение, водные ресурсы и окружающую среду, энергетику и строительство:

1. Очистка воды реки Карун для получения питьевой воды.
2. Удаление тяжелых металлов из питьевой воды.
3. Очистные сооружения для производства сахарного тростника.
4. Производство фильтров для промышленных электростанций для повышения производительности в электроэнергетике.
5. Производство наномедицинских препаратов.
6. Производство материалов и оборудования, используемых в строительной промышленности, таких как бетон, краски, трубы и химические стойкие пластмассы.

Активное участие иранских нанотехнологических компаний в международных выставках проложило им путь к развитию технологических и коммерческих взаимодействий с международными партнерами.

Государство активно поддерживает наукоёмкие компании множеством льгот. Среди них: освобождение от налогов на 15 лет; выделение беспроцентных ссуд и льготных кредитов от множества структур — банков, государственных фондов и частных инвестиционных организаций; предоставление служебных помещений — офисов и лабораторий; страховые услуги для покрытия рисков; разрешены консорциумы с вузами и иностранными компаниями — при условии, что большинство акций будет принадлежать иранцам.

Нанотехнологические продукты из Ирана экспортируются в 45 стран мира, включая развитые страны, такие как: Великобритания, Германия, Испания, Франция, Южная Корея, Австралия, Китай, Малайзия, Индонезия, Россия, Турция, а также в страны Латинской Америки и в Канаду.

Несмотря на экономические санкции, наложенные на Иран, страна демонстрирует удивительные результаты в научно-технологическом развитии. Только за восемь лет, с 2013 по 2020 г., Исламская Республика Иран увеличила численность исследователей почти в два раза – с 72 до 138 тыс. человек, а число выполняемых научно-исследовательских проектов выросло в полтора раза – с 84 до 125 тыс. При этом ежегодные затраты на исследования и разработки в текущих ценах увеличились в пять раз. В структуре этих затрат более чем пятую часть стабильно занимают капитальные вложения в науку.

В Иране насчитывается 42 научно-технологических парка и 186 инкубаторов. Среди них особо известны такие как Научно-технический городок Исфохана,

Хорасанский научно-технический парк, Научно-технический парк Восточного Азербайджана, Научно-технический парк Фарс и Научно-технический парк Йезд.

Технопарк Пардис также является основателем и организатором международных проектов, включающих INOTEX, крупнейшее технологическое и инновационное мероприятие в Иране; премию Мустафы (мир ему и благословение Аллаха), крупнейшую исламскую научную премию в мире, и D-8 TTEN, сеть передачи и обмена технологиями между государствами-членами D-8 («Исламская восьмерка», организация, в которой состоят Бангладеш, Египет, Индонезия, Иран, Малайзия, Нигерия, Пакистан и Турция).

Президент технопарка Пардис Мехди Саффари-Ния заявил, что в 2021 году компании, зарегистрированные в Пардисе, экспортировали продукцию на сумму более 8 млн евро, а продажи, в целом, выросли на 38%. В качестве примеров экспортируемых товаров он привел медицинское, электронное, телекоммуникационное и фармацевтическое оборудование. По словам Мехди Саффари-Ния, самыми крупными импортерами стали Ирак, Турция, Россия, Индия и Китай соответственно .

Иран стремится занять первое место на Ближнем Востоке и войти в десятку лучших стран мира к 2025 г. – именно такие цели ставит перед собой Совет по развитию биотехнологий.

#### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. НАУКА ЗА РУБЕЖОМ. Июль 2022 (№ 109) Институт проблем развития науки РАН, 2022, 60 с., с. 7-9. [http://www.issras.ru/global\\_science\\_review](http://www.issras.ru/global_science_review)
2. Киселева А.Ю. НАУЧНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА В УСЛОВИЯХ ЗАПАДНЫХ САНКЦИЙ. "Мировая наука" №6(75) 2023. С.56-62. [science-j.com](http://science-j.com)
3. Как Иран развивает нанотехнологии вопреки санкциям [Электронный ресурс] // Skillbox – 2022 (дата публикации: 08.04.2022). [URL:https://skillbox.ru/media/business/kak-iran-razvivaet-nanotekhnologii-vopreki-sanktsiyam-uroki-vyzhivaniya-v-izolyatsii/?ysclid=lioid6j9vb639753729](https://skillbox.ru/media/business/kak-iran-razvivaet-nanotekhnologii-vopreki-sanktsiyam-uroki-vyzhivaniya-v-izolyatsii/?ysclid=lioid6j9vb639753729)

## GAVHARSHODBEGIM MAJMUASINING TARIXIY VA MADANIY AHAMIYATI

*Kamoliddin Behzod nomidagi  
Milliy rassomlik va dizayn instituti  
San'atshunoslik va muzeyshunoslik  
fakulteti 3-bosqich talabasi  
Irgasheva Sojida G'olib qizi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Temuriylar avlodining malikalaridan hisoblanmish Gavharshodbegimga atab Eronning Mashhad shahrida barpo etilgan majmuaning tarixiy va madaniy ahamiyati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Gavharshodbegim, temuriylar davri siyosati, gumbaz, majmua, masjid, maqbara, Boysung'ur dahmasi, minora, YUNESKO, koshin.*

**Аннотация:** *В данной статье говорится об историческом и культурном значении комплекса, построенного в городе Мешхед (Иран) в честь Гавхаршодбегим, одной из цариц поколения Тимуридов.*

**Ключевые слова:** *Гавхаршадбегим, политика эпохи Тимуридов, купол, комплекс, мечеть, мавзолей, храм Байсунгур, минарет, ЮНЕСКО, изразец.*

**Annotation:** *This article talks about the historical and cultural significance of the complex built in the city of Mashhad, Iran, in honor of Gavharshodbegim, one of the queens of the Timurid generation.*

**Key words:** *Gavharshadbegim, politics of the Timurid era, dome, complex, mosque, mausoleum, Baysungur temple, minaret, UNESCO, tile.*

Bugungi kunda tarixiy obidalarni tiklash va ularni o'rganishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Erondagi Gavharshodbegim majmuasi ham hozirda ilmiy tadqiqot markazlaridan hisoblanadi. Inshoot Gavharshodbegimga atab bunyod etilgan bo'lib, dastlab Gavharshodbegim haqida to'xtalib o'tsak. Gavharshodbegim (Gavharshod og'a) (1379—1457) — temuriylar avlodidan bo'lmish Shohruxning xotini. Janglardan birida Chingizxonni o'limdan saqlab qolgan mulozim Qishlik avlodi — chig'atoy zodagon G'iyosuddin tarxonning qizi. 1393-yil Shohruxga turmushga chiqqan va undan uch o'g'il Ulug'bek, Boysung'ur, Muhammad Jo'giy va ikki qiz ko'rgan. Shohrux davlatni idora qilishdan ko'ra ko'proq toat-ibodat, diniy kitoblar mutolaasi bilan mashg'ul bo'lmoqni afzal ko'rganidan, avval unga devon ishlarini boshqarishni, so'ng viloyat hokimlari va qo'shin sarkardalarini tayinlash, hatto kimga qanday in'om-u, kimga qanday jazo berish huquqini ham topshirib qo'ygan. Masalan, 1440-yil mashhur tarixchi — Fasih Ahmad Xavofiy Gavharshod begimning buyrug'i bilan ikki marta zindonga tashlangan .

Gavharshod begim saltanat taxtiga valiahd tayinlash borasida ham o'z ixtiyori bo'yicha ish tutib, Shohruxning Muhammad Jo'qini taxt vorisi qilib tayinlash niyatida ekanligiga qaramay, nabirasi Alouddavlani valiahdlikka munosib ko'radi. Chunonchi, u 1444-yil, Shohrux og'ir betob bo'lib qolganda maxfiy farmon bilan Alouddavlani

valiahdlikka tayinlaydi. Ammo, Shohrux tez kunda shifo topib, uning bu rejasi amalga oshmay qoladi. Gavharshod begim Qazvin, Ray, Qum viloyatlari hokimi — nabirasi Sulton Muhammad Hamadon va Isfahonni egallab, Sherozni qamal qilganda (1446) Shohrux bilan birgalikda unga qarshi qo'shin tortadida, Sulton Muhammadni isyonga undagan amaldorlar qatorida bir necha sayyidlarni ham qatl etmoqni Shohruxdan qattiq talab qiladi. Shunda Shohrux uning so'ziga kirib, hatto Amir Temur ham qatl etmoqqa jur'at qilmagan sayyidlarni o'limga buyuradi. Sayyidlar dor ostida turib Shohruxni duoi bad qiladilar. Keyin, Shohrux Sherozdan Hirotga qaytayotib yo'lda 1447-yil 12 mart kuni to'satdan vafot etadi. Ushbu hodisani ba'zilar qarg'ish bilan bog'lashadi. Shundan so'ng Gavharshodbegim qo'shin qo'mondonligini nabiralaridan biri — Abdullatifga topshirib, Alouddavla Mirzoga Hirot mudofaa inshootlarini mustahkamlash zarurligi haqida maxfiy maktub yo'llaydi. Bundan ogoh bo'lgan Abdullatif buvisi Gavharshod begimni hibsga olib, otasi — Ulug'bekka bobosi Shohruxning vafot etgani xususida xabar jo'natadi. Natijada temuriylar o'rtasida taxt uchun kurash boshlanib, 1458-yilda Sulton Abu Said Hirotni egallaydida, Gavharshodbegimni qatl qiladi. Gavharshodbegim Boysung'ur daxmasiga dafn qilingan. Ushbu dahma hozirgi kunda Gavharshodbegim maqbarasiga aylantirilgan .

Eronda joylashgan katta me'moriy yodgorlik 1418-1438 yillarda Gavharshodbegim buyrug'i bilan 20yil davomida barpo etiladi. Majmua masjid, madrasa va temuriylar avlodi maqbarasidan iborat tarzda qurilgan. Bosh me'mor — Shohruxning saroy me'mori Qavomiddin Sheroziy. Maqbara yoniga keyinchalik Husayn Boyqaro mahobatli Madrasa va xonaqoh qurdirgan. Katta kismi, jumladan madrasaning o'zi ham saqlanmagan, maqbara, 8 minoradan 1 tasi, masjid va madrasaning harobalarigina saqlanib qolgan. Musalloning bosh binosi — masjid 106x64 m maydonni egallaydi. Baland peshtoqdan masjid hovli (52x49 m) siga kiriladi. Hovlining atrofi 4 ayvon va ikki qavatli turli xonalar bilan o'ralgan, u qurbon va ro'za hayitlari, juma namozlarini o'qishga mo'ljallangan. Gavharshod begim madrasasi hovlining shimolida bo'lib, masjidning ham, madrasaning ham burchaklarida minoralar bo'lgan, ular marmar va koshin qoplab bezatilgan. Murabba tarhli maqbara 1432-yilda qurib tugallangan, ayniqsa, uning qovurg'ali gumbazi o'ziga xos jozibali. Gumbaz sirkor g'isht terib naqshlangan, uning qurilishida me'mor Imomiddin, hirotlik ustalar — Xoja Mirali Hiraviy va Xoja Mirak Hiraviylar qatnashgan. Ichkaridagi nozik va nafis naqqoshlik bezaklarini Boysung'ur Mirzo yaratgan. Minoralar tepasi qafasa bilan bezatilgan .

Mashhad (Eron) markazida Hirot hukmdori Shohrux Mirzoning xotini Gavharshod begim sharafiga me'mor Qavomiddin Sheroziy tomonidan qurilgan 1405-1419 yillarda masjid barpo etiladi. Atrofi ayvonli katta hovlining to'rt tarafida to'rt xona bo'lib, umumiy maydoni 55x45 metrni tashkil etadi. Ularning janubdagisi katta va gumbazli inshootdir. Unga minorali ulkan peshtoq orqali kirilgan. Minoralar tepasi qafasa bilan bezatilgan. Masjidga rangli koshinlardan nafis va go'zal bezaklar ishlangan. Masjidning shimoliy tomonida Imom Rizo maqbarasi, sharq tomonida Madrasa, g'arbida esa shahar karvonsaroyi joylashgan bo'lib, bular masjid bilan yo'lakcha orqali o'zaro bog'langan. Masjidga rangli koshinlardan nafis va go'zal bezaklar ishlangan. Masjid Safaviylar va Qojarlar davrida bir qator ta'mirlangan. Masjid va uning hovlisi ichidagi mozaik plitkalarda topilgan turli xil yozuvlar Safaviy shahzodalarining ismlari, masalan, Abbas, Shoh Sulton Xusayn, Shoh



Suleyman Safaviy va ularning maqbaraga bo'lgan sadoqatlari va masjidga qo'shgan hissalarini tasvirlaydi. Masjidning ikki qavatli gumbazi 1911 yilda Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan portlashlar natijasida jiddiy shikastlangan .

1935-yilgi qo'zg'olon gumbazni qayta qurishni talab qildi. Muhammad Rizo Pahlaviyning buyrug'iga binoan, 1960-yillarda qadimiy gumbazdan plitkalar olib tashlangan va tashqi qobiq demontaj qilingan. Strukturaviy xavflarni bartaraf etish uchun temir ramka va sement qoplamali yangi tashqi qobiq qurildi. Keyin gumbaz asl nusxaga o'xshash tarzda qayta taxlandi .

Maqbara dastlab Temuriylar hukmdori Shohruxning o'g'li, shahzoda Boysung'urning qabri uchun qurilgan. Maqbara gumbazsimon shaklga ega bo'lib, gumbazi o'rtasini qoplaydi. Bu gumbaz strukturaning eng ta'sirchan xususiyati bo'lib, aslida u bir-birining ustiga o'rnatilgan gumbazlardan iborat: past ichki gumbaz, tashqi gumbaz va ular orasidagi strukturaviy gumbaz. Tashqi gumbaz gulli och-moviy-yashil mozaikalar bilan bezatilgan. Ichki gumbaz oltin barglar va murakkab naqshlarni hosil qiluvchi boshqa ranglar bilan bezatilgan. Qabrning ichki qismi eksa bo'shliqlari bo'lgan to'rtburchak xonadir. Maqbarada Gavharshod begimning o'zi va uning akasi Amir So'fi Tarxon, o'g'lillari Boysung'ur, Muhammad Juqi, Boysung'urning o'g'illari Sulton Muhammad va Ala uddavla, shuningdek, uning o'g'li Ibrohim qabrlari bor.

Maqbaraning hozirgi holati afsus bilan qayd etish kerakki, qoniqarli emas. Gumbazning shikast yetgan joylari bor, minora naqshlari to'kilgan.

YUNESKO homiyligida 2014-yildan boshlab italyan arxitektorlari loyiha ustida ishladilar, lekin ayrim sabablar tufayli loyiha oxiriga yetmadi, shunday bo'lishiga qaramay, maqbara hali hamon sayyohlar diqqat e'tiborida. Afg'oniston va Erondagi aksar mahalliy aholi Gavharshod begimni, garchi malikaning kelib chiqishi eroniylarga aloqasi bo'lmasa ham, "fors qirolchasi" deya e'tirof etishadi.

Hozirda Afg'oniston hukumati inshootni YUNESKOning butun jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritish ustida ish olib bormoqda. Bundan tashqari, 2003-yildan Afg'oniston poytaxti Qobul shahrida maxsus ayollar uchun Gavharshod begim nomidagi Universitet faoliyatini boshlagan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Fayziyev T., Temuriylar shajarasi, T., 1995.
3. Petersen, Andrew. Dictionary of Islamic Architecture. Routledge, 2002 — 111 bet. ISBN 978-1-134-61365-6.
4. Cassar, Brendan. Keeping history alive: safeguarding cultural heritage in post-conflict Afghanistan. UNESCO Publishing, 2015 — 184 bet.
5. „Masjid-i Jami' Gawhar Shad“. Archnet.org. 2018-yil 29-iyulda asl nusxadan arxivlangan.

## MATEMATIKA FANIGA O'QUVCHILARNING QIZIQISHINI ORTTIRISH

**Boltayeva Qumriniso**  
**Muhamedova Munira**

*Buxoro shahar kasb –hunar maktabi matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada matematika fanida axborot texnologiyalarining ahamiyati haqida ilmiy fikrlar bayon etiladi. Ilmiy fikrlar faktlarga asoslanib xulosalanadi.*

**Kalit so'zlar:** *matematika, fan, texnik vositalar mantiq, tur, jins, kompyuter, axborot.*

Matematikaning chegarasiz mamlakat degan iborasini bir necha bor eshitganman. Uning taqiqlanganligiga qaramay, matematikaga oid iboraning juda yaxshi sabablari bor. Inson hayotida matematika alohida o'rin tutadi. Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'ladi. U nafaqat misol va masalalar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish, muhokama va muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o'zida shakllantiradi. Shuningdek, matematiklarga xos fikrlash uni kelajakda amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlar, tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi. Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantirishda, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalashda, algoritmik tarzda tartibintizomlilikni ta'minlashda va tafakkurini kengaytirishda katta o'rin tutadi. Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun matematik madaniyat — umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Matematika fanini nazariylashtirgan holda o'qitishga yondashishdan voz kechib, o'quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga erishish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishga e'tiborni kuchaytirish – davr talabi. Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni hamda matematik ta'limning amaliy, tatbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishni nazarda tutadi. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi, fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatishga ilg'or milliy va xalqaro tajribalar asosida standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi. Matematikaning hayotimizda tutgan beqiyos o'rni inobatga olingan holda mazkur fan birinchi sinfdanoq maktab darsliklariga kiritilgan bo'lib, yurtimizda barcha aniq fanlar qatori matematika ta'limini zamon talablari asosida takomillashtirib borish, uni o'qitishda eng so'nggi pedagogik va innovatsion usullar, multimedia vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o'quv

fanini akademik bilim berishdan ko'ra ko'proq hayot bilan bog'lash, amaliy misol va masalalarni yechish, o'quvchilarni mustaqil izlanish, o'qibo'rganishga jalb etishning ahamiyati beqiyos. Dars jarayonida o'quvchi o'zini majburan partaga mixlab qo'yilgandek his etmasligi, aksincha, mashg'ulotlarda katta ishtiyoq, kuchli xohish bilan qatnashishiga erilishi lozim. Matematik bilimlar nafaqat baho olish uchun savol-javoblar yoki imtihonlarda, balki uyda, ish jarayonida, sport va san'at bilan shug'ullanishda, savdo-sotiq, oldiberdi – hayotning har bir lazasida o'quvchiga naf berishini u chuqur anglab yetishi muhim. Buning uchun esa mazkur fan o'qituvchisi o'tayotgan mavzularini bevosita hayot bilan bog'lab, biror misol yoki masala, topshiriqlarni turmushdagi oddiy vaziyatlar yordamida yechishga o'rgatishi zarur. Matematika fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida informatika fani yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik, kompyuter va axborot texnologiyalar ta'lim jarayonini tashkil etish, tayyorlash, ilmiy-metodik materiallar bilan ta'minlash, ta'lim jarayonini amalga oshirish, ta'lim natijalarining sifatini baholashdan iborat bo'lgan yaxlit tizimda o'z ifodasini topadi. Kompyuter texnikalarini ta'lim muassasalariga tatbiq etish, o'qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo'l ochib beradi. Keyingi o'n yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o'yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi.[1] Matematika o'qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo'nalishi ayrim o'quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirilishi qiyin bo'lgan materiallarni tushunarlibo'lishini ta'minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o'quvchilarga ma'lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasida ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo'ladilar. Ko'p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o'z kasbi bilan bir vaqtda ma'lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi.[2] Shu maqsadda XX asrning 90-yillarida matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo'lgan matematik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to'xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin. Matematika fanlarini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Matematika fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida informatika fani yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir.[3] Kompyuter texnikalarini ta'lim muassasalariga tatbiq etish, o'qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo'l ochib beradi. Keyingi o'n yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish

